



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

2. Vitruvius. (1914). *Ten Books on Architecture*. Harvard University Press.
3. Wikipedia. (2023). *Palmanova*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Palmanova>
4. Campanella, T. (1602). *La Città del Sole*.
5. UNESCO World Heritage Centre. *Neuf-Brisach*.
<https://whc.unesco.org/en/list/1280>
6. Howard, E. (1898). *Garden Cities of To-morrow*. London: Faber and Faber.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda innovatsiyalarni joriy etishning mavjud muammolari va imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ko‘rsatilgan. Shuningdek, energiya tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarish va ilmiy-ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar

Innovatsiya, boshqaruv strategiyasi, qurilish materiallari, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Kirish

Zamonaviy davrda, globallashuv va innovatsion yondashuvlar asosida fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida innovatsiyalar mamlakatlar va alohida tarmoqlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Qurilish materiallari sanoati har qanday davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uy-joy, infratuzilma obyektlari va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois, qurilish materiallari sanoati korxonalarida

rivojlanishning innovatsion strategiyalarini shakllantirish va uni samarali amalga oshirish juda muhimdir.

Mamlakatimizda, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun ham, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Mintaqada qurilish materiallari sanoati uchun katta xomashyo salohiyati mavjud, ammo iqtisodiyotning tarixan shakllangan tuzilmasi, geografik joylashuv va innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu salohiyatni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarish asosiy fondlarining eskirganligi, energiya samaradorligining pastligi, mahsulotlar assortimentining cheklanganligi va sifati ba‘zan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import analoglari bilan raqobatlashish imkonini bermaydi. Shu bois, sohada innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish asosida mahalliy xomashyolardan yangi turdagi yuqori sifatli, raqobatbardosh va energiya tejamkor materiallarni yaratish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixan olib qaraganda “innovatsiya” tushunchasi asosan texnik taraqqiyot va ixtirolar bilan bog‘liq bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin, iqtisodiyot fani rivojlanishi natijasida uning talqini va mazmun-mohiyati ancha kengaydi, u ancha keng ma’noda iqtisodiy samara olish uchun yangi bilimlarni qo‘llash jarayoni sifatida talqin qilina boshlandi.

Innovatsiyalar nazariyasining asoschilaridan biri Y.Shumpeter innovatsiyani yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish usullarini yaratish, yangi bozorlar yoki xomashyo manba‘larini ochish, shuningdek, sanoatni qayta tashkil etishga olib keladigan resurslarning “yangi kombinatsiyalari” sifatida talqin qiladi [1].

V.B.Kondratyev va Y.K.Bajenovlar esa Innovatsiya — iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan yangicha mahsulot yoki texnologiya deb ta’kidlaydi [2].

A.Baragheh innovatsiya— tashkilotlar g‘oyalarni yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarga burish orqali bozorda

muvaffaqiyatli raqobat qilish va farqlanish maksadida olib boradigan bir nechta bosqichli jarayondir deb ta'riflaydi [3].

Bundan tashqari J.Birkinshaw innovatsion boshqaruv — g'oya va texnologiyalarni izlash, tanlash, rivojlantirish, amalga tatbiq etish va dinamik (tijorat yoki ijtimoiy) sharoitda maksimal qiymat yaratish maqsadida odamlar, texnologiya va tashkilotchilik omillarini strategik ravishda boshqarishdir deb ta'riflaydi [4].

V.L.Vasilyev va P.I.Grebennikovlar esa innovatsion boshqaruv — innovatsiya jarayonlarini tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish tizimi deb ta'riflaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlariga global xarajatlar misli ko'rilmagan darajada o'sishda davom etmoqda. Birgina 2023 yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga kiritilgan global investitsiyalar 2,5 trillion AQSH dollaridan oshdi. Bu investitsiyalarning katta qismi yangi materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqarish hamda joriy etish bilan bog'liq sohalarga yo'naltirilmoqda. Ushbu holat mamlakatlar va yirik korporatsiyalarning kuchli raqobat sharoitida o'z mavqe'larini saqlab qolish uchun ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot turlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirish zarurligini angelayotganidan dalolat beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari sanoatida innovatsion boshqaruv strategiyalarini joriy etish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur tarmoq hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim drayver vazifasini bajaradi. Innovatsiyalarning samarali boshqarilishi korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi, resurslardan tejimli foydalanish imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istondagi yirik qurilish materiallari korxonalarida innovatsiyalarni joriy qilish sur'atlari hali to'liq qoniqarli emas. Xususan, texnologik jarayonlarda avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv

yechimlarining qo'llanilishi past darajada ekanligi kuzatildi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining cheklanganligi va mahsulot sifatining yetarlicha yuqori emasligiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion boshqaruv strategiyalarini faol joriy etgan korxonalar samaradorlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Masalan, so'nggi uch yilda kamida bitta innovatsion tashabbus amalga oshirilgan korxonalarda bunday strategiyaga ega bo'lmagan korxonalarga nisbatan mehnat unumdorligi 15-20 foizga o'sishi va xarajatlar 10-12 foizga kamayishi kuzatilmoqda. Bu boshqaruv innovatsiyalari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlar yuqoridagilarga asoslangan holda, qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi:

innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish;

mahalliy xomashyolardan yangi turdagi yuqori sifatli, raqobatbardosh va energiya tejamkor materiallarni yaratish;

korxonalarning innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish;

ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot turlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirish;

uzoq muddatli innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston qurilish sanoati korxonalarida innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirish va joriy etish ularning raqobatbardoshligini oshirish, butun tarmoqning barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasini ta'minlashning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J. A. Schumpeter. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Harvard University Press. 1934.
2. В.Б.Кондратьев, Ю. К. Баженов, *Экономика инноваций*. Москва: Инфра-М. 2012.
3. A.Baragheh, J.Rowley, S.Sambrook . *Towards a multidisciplinary definition of innovation. Management Decision*, 47(8). 2009.
4. J.Birkinshaw, G.Hamel, M.J.Mol. *Management Innovation. Academy of Management Review*, 33(4). 2008.
5. В.Л.Васильев, П. И.Гребенников. *Инновационный менеджмент*. Москва: Юрайт. 2016.

AVTOMOBIL YO'LLARI SOHASIDAGI INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARI TAHLILI

t.f.d. professor Urokov Aslidin Xushvaktovich¹
Mustaqil tadqiqotchi, Quljonov Farxod Berdiyevovich²,
^{1,2}Toshkent davlat transport universiteti,
²E-mail: farhod11@gmail.com

Аннотасија

Ushbu maqolada Intellektual transport tizimi(ITT)ning maqsadi, qonun xujjatlarida qo'yilgan vaziflar, uning rivojlanish xronologiyasi hamda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar keltirilgan. ITTning bir turi sifatida O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan WIM tarozilari va ularni kelajakda rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Аннотация

Приведены цель интеллектуальной транспортной системы (ИТС), задачи, поставленные в законодательных актах, хронология ее развития и проводимая в нашей стране работа в этом направлении. Освещены данные об установленных в Республике Узбекистан весах WIM как разновидности ИТС и их дальнейшем развитии.

Annotation